

ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI: MUAMMOS VA YECHIMLAR mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

XITOYDA INTERNET TIZIMINING TARAQQIYOTI

Munisa Abduraxmanova,

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Axborot xizmati va jamoatchilik bilan
aloqalar kafedrasи o‘qituvchisi
m.abdurahmonova1983@gmail.com
+998909966841*

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida “O‘zbekiston jahoning barcha mamlakatlari bilan sheriklikni rivojlantirishga doimo tayyor”, [1] – deb qayd etdi. U o‘z chiqishida hukumatlar, parlamentlar va fuqarolik jamiyatlarining o‘zaro sa’y-harakatlarini birlashtirish, umumiylashtirish, umumiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish lozimligini ta’kidladi.

Bu xayrli vazifalarni amalga oshirish maqsadida olib borilayotgan qator tadbirlar orasida turli sohalarda yo‘lga qo‘yilgan va amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlikning ahamiyati kattadir. Biz sheriklik qilayotgan mamlakatlar, ularning siyosiy-iqtisodiy maqomi, ishlab chiqarish samaradorligi haqida qancha ko‘p bilsak, shuncha ular bilan foydali munosabat o‘rnatish ufqlari keng ochiladi.

Xitoy Xalq Respublikasi ana shunday yaqin hamkor mamlakatlarning biridir. O‘zbekiston – Xitoy aloqalarining shartnomaviy-huquqiy zamini turli yo‘nalishlarni qamrab olgan 200 dan ortiq hujjatdan iborat.

Jadal ilgarilab borayotgan axborot texnologiyalari asrida informatsiya almashinushi misli ko‘rilmagan cho‘qqiga chiqdi. Bugun axborot kommunikatsiya vositalari hamda internetsiz rivojlanishni tasavvur ham etolmaydigan bo‘lib qoldik. Dunyo bo‘ylab mahalliy tarmoqlar va serverlarni yagona tarmoqqa birlashtirgan internet axborotning elektron almashinuv usuli orqali har qanday ma’lumotni real vaqt mobaynida dunyoning bir burchagidan ikkinchi burchagiga uzatish imkoniyatini berdi. Jahondagi zamonaviy axboriy vaziyatda internet ma’lumot berish va ma’lumot olishda eng faol manbaga aylandi: tarmoqdagi axborot ko‘payib bormoqda, shuning bilan birga foydalanuvchilar soni ham o‘sayıpti. Tarmoq qariyb barcha axboriy makonni to‘ldiradi, buni statistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. 2000 yilda butun dunyo internet foydalanuvchilari 360 985 492 kishidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2012 yilga kelib ularning soni 2 459 646 518 kishiga yetdi (taxminan sayyoramiz umumiy aholi sonining 30,2%) [2]. 2013 yil bu ko‘rsatkich mobil internet foydalanuvchilari bilan qo‘shib hisoblaganda 2.7 milliard kishidan oshdi, sayyoramiz umumiy aholi sonining 39% ni tashkil etdi [3]. Dunyoda internet foydalanuvchilari soni 2024 yilga kelib esa 6,164,597,285 dan oshmoqda [4].

ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI:

MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari orasida yetakchilardan bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasida internet juda takomillashib ketgan, mamlakatning internet sohasida o‘z uslubi, dunyo internet tarmog‘ida o‘z o‘rnvi va maqomi mavjud.

Xitoy suveren internet g‘oyasining asoschisi hisoblanadi. U zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni davlat mafkurasi bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtira olgan. Buyuk xitoy brandmaueri, ya’ni kontentni filtrash Pekin kibersiyosatining muhim jihatlaridandir. Bunday yondoshuv kibermakonda chegaralarni aniqlash va belgilab olish universal me’yor bo‘lmashdan, o‘sish, taraqqiyotdagi o‘xhashlik bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Agar siyosiy liberalizm oqimi bo‘ylab harakatlanayotgan G‘arb mamlakatlari internet erkinlikni faol kibersiyosat vositalari bilan (virtual elchixonalar, boshqa mamlakatlardagi kiberfaollarni qo‘llab –quvvatlash kabilari) uyg‘unlikda qo‘llashni ma’qul ko‘rayotgan bo‘lsalar, boshqa davlatlar internet makonni milliy nazorat ostiga olish shart, degan fikrni ilgari surmoqda. Boshqacha aytganda, kibermakon ham turli qarash, g‘oya va mafkuralar uchun turli kuchlar kurashi mudom davom etayotgan bellashuv maydonidan boshqa narsa emas.

Shu o‘rinda XXRda faoliyat yuritayotgan ayrim mashhur saytlar, ularning tarixiga to‘xtalib o‘tish joiz.

Xitoyda tarmoqning paydo bo‘lishi “Yuqori energiya fizika instituti” bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Ilk bor zamonaviy internet tizimida paydo bo‘lgan sanasi 1994 yilning may oyi bo‘lib, 64kbps “Sprint” tizimi orqali kirilgan [5]. Shundan beri internet hamon mukammallahib, imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda.

Hamma sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim yo‘nalishini rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirishda internetning xizmati beqiyosligi shubhasiz. Xitoyda ham ta’lim sayti mavjud bo‘lib, u CERNET (www.edu.cn) deb nomlanadi. U mamlakatdagi ta’lim jarayonlari, eng so‘nggi texnologiyalar, yangiliklardan xabardor qilib boradi. Ushbu saytdan Xitoyning barcha hududlaridagi boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan yoshlar foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

Xitoyning mashhur saytlaridan yana biri CinaNet (www.bta.net.cn) bo‘lib, mamlakatning har bir provinsiyasi, shahar va uyezdlarida o‘z shaxobchalariga ega. U turli tarmoqlar faoliyatini jadallashtirish, taraqqiyotga hizmat qilish barobarida uzoq hududlardagi tolibi ilmlarni masofadan turib o‘qitishning samarali vositasi hamdir.

Xitoyda internet tizimi faoliyatida katta o‘zgarishlar yasagan, shu bilan mamlakat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shishga muvaffaq bo‘lgan mutaxassislar kam emas. Shularning biri Cheng Bingxaodir. U 1998 yilda Zongguansun viloyatidagi “Sifanglitong” deb ataladigan Xitoy kompaniyasiga birinchi marta kirib kelganida 26

ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI:

MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

yoshda edi. Dasturlovchi bo‘lib ish boshlagan Cheng Bingxao bilimi, iqtidori bilan kompaniya rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shti. Ko‘p vaqt o’tmasdan “Sifanglitong” Xitoydagi yirik internet korxonasiga aylandi va “Sinlang” (www.sina.com.cn) nomini oldi. Bugunda ushbu kompaniya Xitoyda eng yuqori pog‘onalardan birini egallab turibdi.

Cheng Bingxao keyinchalik o‘z kompaniyasini tashkil qildi va mustaqil tarmoq hisoblanadigan “Kaixinwang” (www kaixin001.com) saytini ochdi. Xitoyning ushbu eng mashhur saytidan hozirda 90 milliondan ortiqroq kishi foydalanadi. Cheng Bingxao Xitoyda internetning “oltin davr”ini yaratgan shaxs hisoblanadi.

Xitoy interneti haqida so‘z yuritarkanmiz, yana bir yirik saytni tilga olish joiz. Bu 2000 yilda Li Yanxun tomonidan yaratilgan “Baidu”(www.baidu.com) bo‘lib, hozirda bu sayt xitoy tilidagi qidiruv tizimi sifatida dunyodagi eng yirik saytlardan biri hisoblanadi. “Baidu” da ma’lumot izlash va topish juda oson, tezligi ham havas qilgulik.

Shuningdek, Xitoy internetining yana bir jihatni ajralib turadi – bu elektron kutubxonalar tizimi bo‘lib, ulardan foydalanish ko‘lami kun sayin ortib bormoqda. Bu esa birinchidan, vaqtini tejaydi, ikkinchidan, kerakli adabiyotlarni qidirib topish mashaqqatidan xalos etadi, uchinchidan, qulayligi bilan e’tiborni tortadi.

Chindan ham qulaylik borasida internet taqdim etayotgan xizmatlarga yetadigani yo‘q: biz bir lahzada birja ma’lumotlaridan xabar topishimiz, onlayn magazin, mobil aloqa kompaniyalarining yangi xizmatlari, ilovalari, internet provayderlari, IP-aloha va yana talay boshqa turdagи xizmatlardan foydalanishimiz mumkin. Internet bugungi kunda butun jahon erkin bozoriga aylandi va bu bozorning afzalliklarini har birimiz his qilib ulgurdik.

2016 yilning 16-19 dekabr kunlari Xitoyning Uchjen shahrida Xalqaro internet forum bo‘lib o‘tdi. Uni G’arb mamlakatlari boshchiligidagi muntazam o’tkazib turiladigan shu kabi tadbirlarning biri, deyish mumkin. Unda hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, biznes-kompaniyalar va fuqarolik jamiyatlarining 10 mingdan ziyod vakillari ishtirok etishdi. Forumning mavzu doirasida jahon internet makonining istiqboli haqida bahs-munozaralar bo‘ldi. Xitoy jahon internet makonini avvalgidek diqqat bilan nazorat qilish yo‘nalishidagi ishlarini davom etishini bildirdi. Shuningdek, Xitoy texnologik kompaniyalari texnik qurilmalar yaratishda Amerika va Britaniya ishlab chiqaruvchilari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashishga qodirligini ma’lum qildi. Zero, Huawei Xitoy kompaniyasi 2015 yildayoq jahon bozorida telekommunikatsiyalar sohasida talay taklif va ishlanmalarini taqdim etib, muvaffaqiyatli hamkorliklarni yo‘lga qo‘ygan edi. Huawei kompaniyasi yurtimizda

ONLAYN MEDIA TARAQQIYOTI TENDENSIYALARI:

MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

“Elektron ta’lim” loyihasini amalga oshirib kelmoqda, unga ko‘ra “Elektron ta’lim” loyihasi 80 dan ortiq OTM va o‘quv dargohlariga tadbiq etilib, bir qanchalarida Smart Class o‘quv xonalari ochildi.

O‘zbekiston va Xitoy rahbari 2023–2027-yillarga mo‘ljallangan ikki davlat o‘rtasida yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturini qabul qildi. Ular ishtirokida davlat organlari va kompaniyalar o‘rtasida 41 ta hamkorlik xujjatlari imzolandi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan Pekin xorijiy tillar va madaniyat universiteti o‘rtasida; Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan Lyaonin pedagogika universiteti o‘rtasida; Samarqand xalqaro texnologiyalar universiteti bilan Tyanszin fan va texnika universiteti o‘rtasida; Samarqand xalqaro texnologiyalar universiteti bilan Shimoli-sharq elektroenergetika universiteti o‘rtasida; Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Shanxay universiteti o‘rtasida memorandumlar imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, jahon internet bozorida Xitoy interneti mustahkam o‘rin egallab, yetakchilardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu sohadagi jarayonlar jamiyat a’zolarining har tomonlama bilimli, yetuk va barkamol bo‘lib shakllanishiga ulkan hissa qo‘shayotgani shubhasiz.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://daryo.uz/2020/09/24/ozbekiston-jahoning-barcha-mamlakatlari-bilan-sheriklikni-rivojlantirishga-doimo-tayyor-shavkat-mirziyoyevning-bmt-bosh-assambleyasi-75-sessiyasidagi-nutqi-haqida>.
2. <http://www.howmanyarethere.org/how-many-internet-user-are-there-in-the-world-2012/>
3. <http://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Documents/facts/ICTFactsFigures2013.pdf>
4. <https://aniq.uz/uz/statistika/dunyo>
5. Цифры и факты. – Китай. – 2005. – 75 б.